

MUSIQA TA'LIMIDA USTOZ–SHOGIRD MUNOSABATLARI ORQALI IJODIY-ESTETIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Djumaboyeva M

Qo'qon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ta'limida ustoz–shogird munosabatlarining nazariy va amaliy ahamiyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ustoz–shogird an'anasi orqali bo'lajak musiqa o'qituvchilarda ijodiy-estetik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari asoslab berilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida ushbu an'ananing transformatsiyasi va innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi alohida yoritilgan. Maqolada ustozning shaxsiy namunasi, ijodiy muhit va individual yondashuvning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ustoz–shogird modelining samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv talabalarda ijodiy fikrlash, estetik did va kasbiy identitetni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, ustoz-shogird, ijodiy kompetensiya, estetik tarbiya, musiqa pedagogikasi, didaktika, ijodiy faoliyat, pedagogik yondashuv, milliy an'ana, innovatsiya, ta'lim texnologiyalari, kasbiy identitet, madaniyat, san'at, ijrochilik

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical significance of the master–apprentice relationship in music education. The study substantiates pedagogical mechanisms for developing creative and aesthetic competencies in future music teachers through this traditional model. The transformation of the master–apprentice system in modern education and its integration with innovative approaches are highlighted. The importance of the teacher's personal example, creative environment, and individual approach is emphasized. The results confirm the effectiveness of this model in enhancing creative thinking, aesthetic perception, and professional identity formation.

Keywords: music education, master-apprentice, creative competence, aesthetic education, music pedagogy, didactics, creative activity, pedagogical approach, national tradition, innovation, educational technology, professional identity, culture, art, performance

Аннотация: В статье рассматривается теоретическое и практическое значение отношений «учитель–ученик» в музыкальном образовании. Обоснованы педагогические механизмы развития творческо-эстетических компетенций будущих учителей музыки на основе данной традиции. Освещены вопросы трансформации системы «учитель–ученик» в условиях современной образовательной среды. Подчёркнута роль личного примера педагога, творческой среды и индивидуального подхода. Результаты подтверждают эффективность



данной модели в формировании профессиональной идентичности и творческого мышления студентов.

Ключевые слова: музыкальное образование, учитель-ученик, творческая компетенция, эстетическое воспитание, музыкальная педагогика, дидактика, творческая деятельность, педагогический подход, традиция, инновации, образовательные технологии, профессиональная идентичность, культура, искусство, исполнительство

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida musiqa ta'limining o'рни va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida milliy musiqiy merosni saqlash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, ustoz–shogird an'anasi musiqa ta'limining eng samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu an'ana nafaqat bilim berish, balki ma'naviy qadriyatlarni uzatish vositasi hamdir. Musiqa san'ati o'ziga xos ijodiy va estetik jarayon bo'lib, uni o'rganish individual yondashuvni talab qiladi. Ustoz–shogird modeli aynan shu ehtiyojni qondiradi. Chunki bu modelda shogird ustoz bilan bevosita muloqotda bo'ladi va bilimni amaliy faoliyat orqali egallaydi. Bugungi kunda pedagogik jarayonda kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ijodiy-estetik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi alohida e'tibor talab qiladi. Musiqa ta'limida bu kompetensiyalar talabaning ijodiy fikrlashi, estetik didi va badiiy tafakkurini rivojlantirish orqali shakllanadi.

Ustoz–shogird munosabatlari esa ushbu jarayonning markaziy omili hisoblanadi. Chunki ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ustoz–shogird an'anasi Sharq pedagogik tafakkurining eng muhim tarkibiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv tarixan nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy, estetik va kasbiy jihatdan kamol topishida ham muhim o'rin egallagan. Sharq mutafakkirlarining asarlarida ustozning o'рни, uning shaxsiy namunasi va tarbiyaviy ta'siri alohida ta'kidlangan bo'lib, bu holat mazkur pedagogik modelning chuqur ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xususan, Abu Nasr Forobiy ta'lim jarayonida ustozning yetakchi rolini asoslab, bilim berishda mantiqiylik, izchillik va shaxsiy namunaning muhimligini ta'kidlaydi. Ibn Sino esa o'zining pedagogik qarashlarida ta'lim-tarbiya jarayonining individual yondashuv asosida tashkil etilishi zarurligini qayd etadi. Ushbu yondashuvlar bugungi kunda ustoz–shogird modelining nazariy asoslarini tashkil etadi va uni zamonaviy ta'lim tizimiga mos ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham ustoz–shogird



an'anasining ahamiyati keng yoritilgan. Pedagogika sohasidagi olimlar mazkur modelni kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashtirish zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, ustoz–shogird munosabatlari orqali talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ijodiy fikrlash, refleksiv tahlil qilish va kasbiy identitetni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, musiqa ta'limida bu modelning ahamiyati yanada ortadi, chunki musiqiy faoliyat bevosita amaliy tajriba, ijodiy yondashuv va individual rivojlanishni talab qiladi. Musiqa pedagogikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ustoz–shogird modeli asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning musiqiy idroki, estetik tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu jarayonda ustozning ijodiy faoliyati, pedagogik mahorati va shaxsiy yondashuvi talabaning kasbiy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mazkur modelni ilmiy jihatdan asoslash va uning metodik imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar asosida ta'lim jarayoni talabaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manbalar o'rganildi hamda umumlashtirildi. Kuzatish metodi yordamida ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar va talabalar faoliyati monitoring qilindi. Pedagogik tajriba usuli asosida ustoz–shogird modeli amaliyotga joriy etildi va uning samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Shuningdek, solishtirma tahlil metodi orqali eksperimental va nazorat guruhlari natijalari o'zaro qiyoslandi.

Tadqiqotning amaliy bosqichida eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirildi. Eksperimental guruhda ta'lim ustoz–shogird modeli asosida tashkil etilgan bo'lsa, nazorat guruhida an'anaviy ta'lim metodlari qo'llanildi. Tajriba davomida talabalarning ijodiy-estetik kompetensiyalari rivojlanish darajasi muntazam ravishda o'lchab borildi. Bu jarayonda maxsus ishlab chiqilgan mezonlar va ko'rsatkichlar asosida baholash amalga oshirildi. Olingan natijalarni tahlil qilish jarayonida statistik va sifat tahlili usullaridan foydalanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga imkon berdi. Shuningdek, natijalar asosida ustoz–shogird modelining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi va uning musiqa ta'limidagi o'rni belgilab berildi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini tashkil etib, ustoz–shogird modelining musiqa ta'limida ijodiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR



Tadqiqot jarayonida ustoz–shogird modeli asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi eksperimental va nazorat guruhlarida kesimida tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko’rsatdiki, mazkur pedagogik yondashuv talabalarning ijodiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda an’anaviy metodlarga nisbatan ancha yuqori samaradorlikka ega. Eksperimental guruhda ta’lim olgan talabalar musiqiy materialni nafaqat qayta ijro etish, balki uni mustaqil talqin qilish, o’z ijodiy yondashuvini qo’llash hamda yangi badiiy g’oyalarni ilgari surish qobiliyatlarini namoyon etdilar. Ayniqsa, ularning improvizatsiya qilish, musiqiy obrazlarni chuqur his etish va estetik baholash ko’nikmalarida sezilarli o’sish kuzatildi. Natijaviy ko’rsatkichlarga ko’ra, tajriba boshida ijodiy darajasi past bo’lgan talabalar ulushi yuqori bo’lgan bo’lsa, tajriba yakunida ushbu ko’rsatkich keskin kamayib, o’rta va yuqori darajadagi talabalar ulushi ortdi. Bu esa ustoz–shogird modelining rivojlantiruvchi ta’sirini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ustozning shaxsiy namunasi va ijodiy faoliyati talabalarga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ustoz tomonidan berilgan individual tavsiyalar, ijodiy topshiriqlar va amaliy mashg’ulotlar talabalarning o’ziga bo’lgan ishonchini oshirdi. Natijada ular murakkab musiqiy asarlarni ijro etishda ham faolroq bo’la boshladilar.

Shuningdek, ustoz–shogird munosabatlarida yuzaga keladigan doimiy muloqot va refleksiya jarayoni talabalarning o’z faoliyatini tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa ularning kasbiy-pedagogik identitetini shakllantirishda muhim omil bo’lib xizmat qildi.


Eksperimental kuzatishlar shuni ko’rsatdiki, ushbu model asosida ta’lim olgan talabalar darsdan tashqari ijodiy faoliyatlarda ham faol ishtirok etdilar. Ular mustaqil ravishda musiqiy loyihalar ishlab chiqish, yangi kompozitsiyalar yaratish va sahna faoliyatida qatnashish kabi ko’nikmalarni egalladilar. Natijalar shuni ham tasdiqladiki, ustoz–shogird modeli nafaqat ijodiy, balki emotsional-intellektual rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Talabalarda musiqiy his-tuyg’ularni chuqurroq anglash, tinglash madaniyati va badiiy tafakkur darajasi oshdi. Bundan tashqari, mazkur model talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantirdi. Ular ustoz bilan muloqot jarayonida fikr almashish, savol berish va o’z nuqtai nazarini asoslab berish ko’nikmalarini mustahkamladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ustoz–shogird munosabatlari asosida tashkil etilgan musiqa ta’limi jarayoni talabalarning ijodiy-estetik kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qilishini ko’rsatdi. Ushbu model pedagogik samaradorlikni oshiruvchi muhim innovatsion yondashuv sifatida e’tirof etilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta’limida ustoz–shogird munosabatlari bo’ljak mutaxassislarning ijodiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo’ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, mazkur yondashuv orqali





talabalarning nafaqat nazariy bilimlari, balki ularning ijodiy tafakkuri, estetik didi va musiqiy idroki ham kompleks tarzda rivojlanadi. Ayniqsa, ustozning shaxsiy namunasi, individual yondashuvi va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni talabalarning ichki ijodiy salohiyatini ochib berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, ustoz–shogird modeli asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash, hamda yangi badiiy g'oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga zamin yaratadi. Mazkur model orqali talabalarda ijodiy yondashuv, refleksiv fikrlash va estetik qadriyatlarga ongli munosabat shakllanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ustoz–shogird munosabatlari asosida tashkil etilgan darslar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning musiqiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Ular dars jarayonida faol ishtirok etish, musiqiy asarlarni mustaqil talqin qilish va ijodiy ishlarda tashabbus ko'rsatishga intiladilar. Natijada talabalarning bilim darajasi barqaror ravishda oshib boradi, past ko'rsatkichli talabalar ulushi kamayadi hamda yuqori natijalarga erishayotgan talabalar soni ortadi. Bundan tashqari, mazkur model talabalarning emotsional-intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular musiqiy his-tuyg'ularni chuqurroq anglash, estetik baholash va badiiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa musiqa ta'limining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan estetik tarbiyani samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, talabalarda milliy musiqiy merosga hurmat, madaniy qadriyatlarga sodiqlik va san'atga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Tadqiqot natijalari ustoz–shogird modelining didaktik va metodik jihatdan asoslanganligini ham tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv an'anaviy va zamonaviy pedagogik metodlarning uyg'unlashuvi asosida ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayoni yanada moslashuvchan, samarali va shaxsga yo'naltirilgan tus oladi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimi talablariga to'liq javob beradigan innovatsion pedagogik modelni shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, ustoz–shogird munosabatlari musiqa ta'limining sifatini oshirish, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ularni kelajakdagi pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur modelni ta'lim tizimiga keng joriy etish orqali musiqa ta'limining samaradorligini yanada oshirish mumkin.


Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda ustoz–shogird modelining raqamli ta'lim muhiti bilan integratsiyasi, uning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi rivoji hamda xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlili alohida e'tibor talab etadi. Bu esa mazkur modelni yanada takomillashtirish va uni amaliyotga samarali joriy etish imkonini beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov, N. A. (2015). Kasbiy ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
2. Safarova, R. (2018). Pedagogik jarayonda shaxsni shakllantirish muammolari. Toshkent: O'qituvchi.
3. Qodirov, R. (2020). Musiqa ta'limi metodikasi. Toshkent: Innovatsiya.
4. Baxriyev, A. (2019). Pedagogik kompetensiya va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Tafakkur.
5. Qobilova, E. (2020). Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari. Farg'ona: Farg'ona nashriyoti.
6. Qobilova, E. B. (2021). Moral education as an important factor in the formation of a student as a person. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(10), 186–189.
7. Azizxonova, M., & Qobilova, E. (2022). Yoshlarni musiqiy madaniyati va ma'naviyatni shakllantirishda musiqiy tarbiyaning ahamiyati. *Oriental Art and Culture*, 3, 51–57.
8. Қобилова, Э. Б. (2022). Формировать духовное мировоззрение подрастающего поколения через фольклор жанра. *Oriental Art and Culture*, 3(1), 291–295.
9. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(9), 126–130.
10. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3, 127–132.
11. Qobilova, E. B., Toshpolatova, S., Muhammadjonova, M., Muninova, M., Baxromova, M., & Rahimova, D. (2023). Qadimiy musiqiy san'atning shakllanish jarayoni. *Science and Innovation*, 2(Special Issue 14), 560–565.
12. Qobilova, E. (2024). The place of folk songs in Isajan Sultan's stories. *American Journal of Social Sciences and Humanity Research*, 4(2), 44–49.
13. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O'zbek xalq an'analari – tarbiya omili. *Scientific Approach to the Modern Education System*, 3(26), 192–195.
14. Qobilova, E. (2024). Musiqa ong va hislar o'rtasidagi vositachidir. *Pedagogikada ilmiy izlanishlar*, 2(1), 28–31.
15. Qobilova, E. (2024). The significance of interdisciplinary connection in the formation of music literacy in children with hearing defect in music lessons. *Uzbekistan Educational Research Journal*, 1(1).





16.Кобилова, Е. (2025). The role of the opera genre in the spiritual and moral education of students. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, 1(1), 156–159.

17.Е'zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). Hozirgi o'zbek hikoyachiligining yetakchi tamoyillari. *University Research Base*, 46–49.

